

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori  
Sh. Siroyiddinov  
2023-yil



**60111400 – O'zbek tili va adabiyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishining fanlar kesimida kasbiy kompetensiyalari  
JADVALI**

<b>№</b>	<b>Fanlar nomi</b>	<b>Fan kodi*</b>	<b>Majburiy / tanlov</b>	<b>O'qitiladigan semestri (lar)</b>	<b>Kompetensiyalar (Malakalar)</b>
1.	Davlat tilida ish yuritish	DTIYU105	majburiy	1	O'zbek tilida rasmiy hujjat tilining o'ziga xos jihatlari ang'lay olish; o'zbek tilida tashkiliy, farmoyish, ma'lumot-axborot hujjatlari, xizmat yozishmalarini to'g'ri rasmiylashtira olish; davlat tilida yoziladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tahrir qila olish.
2.	Tilshunoslik asoslari	TA105	majburiy	1	Tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoslikdagi tizimli yondashuv usullarini tahlil jarayoniga tatbiq etish
3.	Adabiyotshunoslik asoslari	AA104	majburiy	1	Fan talabaga o'rta umumta'lim hamda o'rta maxsus ta'lim tizimida o'rganiladigan adabiy-nazariy tushunchalarni chuqur o'rganish; adabiyotshunoslik asoslari bo'yicha bilim berish bo'lib, unda badiiy asar mohiyati, badiiy ijod qonuniyatlari, adabiy tur va janrlar, badiiy asarning shakli va mazmuni, poetik nutq, uslub va shu kabi bir qator nazariy masalalarni aniq badiiy asarlarga tatbiq etish



4.	Hozirgi o'zbek adabiy tili	HO'AT105/208/304	majburiy	2,3,4,5	Ona tili bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni to'laqonli professional ilmiy, ilmiy-amaliy va amaliy faoliyatga tayyorlash, tilni – umuman va alohida tillarni kommunikativ sistema sifatida nazariy tadqiq qilish, ona tilidagi tadqiqot natijalarni amaliy qo'llashga – avvalo, maktabdagi ona tili darsliklaridagi mavzular ustida ishlash hamda boshqa ilmiy fanlar (filologik, nofilologik) bilan shug'ullanish kompetensiyasini hosil qilish
5.	O'zbek adabiyoti	O'A104/208/304	majburiy	2,3,4,5	O'zbek adabiyoti – o'zbek adabiyotining barcha davrlarini mukammal o'rganib, o'zbek adiblarning asarlarini tahlil etish va o'qitish ko'nikmasiga ega bo'lish.
6.	Ona tilini o'qitish metodikasi	OTO'M309	majburiy	5,6	Til ta'limining umumiy va xususiy maqsadlari, mazmuni, vositalari, usul va metodlari mutanosibligini ta'minlash asosida ona tili darslarini loyihalashtira olish; ta'lim jarayonida innovatsion usullardan samarali foydalanish; ona tili ta'limini kommunikativ, kognitiv-pragmatik, integrativ yondashuv asosida tashkil eta olish; o'quvchilarda nutqiy (o'qiv va tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq), lingvistik va hayotiy (XXI asr ko'nikmalari) layoqatni shakllantira olish.
7.	O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi	O'AO'M308	majburiy	5,6	Mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni qo'llay bilish; ta'limning turli bosqichlarida adabiyotdan turli tadbirlarni hamda zamon talabiga mos darslarni tashkil qila olish; darsliklardan ta'lim jarayonida to'g'ri va samarali foydalana olish.
8.	Adabiyot nazariyasi	AN406	majburiy	7	O'rta umumta'lim hamda o'rta maxsus ta'lim tizimida o'rganiladigan adabiy-nazariy tushunchalarni chuqur o'rgatish; adabiyot nazariyasi bo'yicha bilim berish bo'lib, unda badiiy asar mohiyati, badiiy ijod qonuniyatlari, ijod psixologiyasi, adabiy tur va janrlar, badiiy asarning shakli va mazmuni, poetik nutq, uslub va shu kabi bir qator nazariy masalalarni aniq badiiy asarlarga tatbiq etgan holda o'rgatishdan iboratdir.
9.	Tilshunoslik nazariyasi	TN405	majburiy	8	Til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va psixologiya, til va semiotika masalalarini, tiling semiotik



				<p>tabiatini yoritish, nutq va nutq faoliyati munosabatini o'rganish, dunyo tillarini tavsiflash, tasniflash, tillarning genetik asoslarini, eng qadimiy til, proto til ("bobo til"), uning boshqa tillar hamda shevalarga munosabatini tahlil etish, til va jamiyat taraqqiyoti uyg'unligini asoslash, tillarning kelib chiqishi va rivojlanishiga oid qarashlarini umumlashtirish, til va jamiyat taraqqiyoti uyg'unligini asoslash, dunyo tillari tipologiyasini, tillarning morfologik xususiyatlarini, morfem tarkibi, tuzilishini yoritish, tillarning morfologik xususiyatlarini, morfem tarkibi, tuzilishini yoritish, tilning asosiy sathlarini tavsiflash, fonetik-fonologik, leksik, grammatik sath mohiyatini yoritish, fonetika va fonologiya, morfologiya va sintaksis, leksika va semantika, stilistika masalalarini belgilash, ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat.</p>	
10.	Navoiyshunoslik	N406	majburiy	7	<p>Navoiy ijodi namunalari o'qish, tushunish, o'rgata olish malakasiga ega bo'lish, Navoiy hayoti va ijodi haqidagi nazariy qarashlarni bilish</p>
11.	Badiiy tahlil asoslari// Hozirgi adabiy jarayon	BTA2606// HAJ2606	tanlov	6	<p>Talabada badiiy asarni ilmiy tahlil qilish ko'nikmasi shakllantiriladi; badiiy tahlilning filologik va didaktik turlaridan amaliyotda foydalanish, milliy mansublik va e'tiqod o'ziga xosligini hisobga olish, tur va janr xususiyatlarini farqlashni o'rganadi.// Talablar milliy adabiyot namunalari jahon adabiyoti namunalari bilan solishtirib, muayyan adabiy hodisalarini, globallshuv davridagi mavzu, janrlar takomili masalalariga doir olib borilayotgan ishlarni o'rganadilar, qiyosiy adabiyotshunoslik taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatlarini belgilash va komparativistik tahlil malakasiga ega bo'lalilar.</p>
12.	She'r ilmi asoslari// Adabiy tanqid	ShJA2606// AT2606	tanlov	6	<p>She'r ilmi haqida batafsil nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish, aruzning nazariy asoslarini o'rganish, ushbu o'Ichovda bitilgan she'riy asarlarni tahlil qilish, mumtoz janrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ilmi badii', ilmi qofiya haqida ma'lumotga ega bo'lish, she'rni tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.//Adabiy tanqid masalasi, uning tarixi, kelib chiqish jarayoni, tarixiy va zamonaviy taraqqiyot</p>



					<p>bosqichlaridagi o'zmi, badiiy asarlarni o'lchash, tahlil qilish, baholash malakasiga ega bo'lish</p> <p>Asar mutolaasida notiqlik san'atini shakllantirish va mutolaa madaniyatini rivojlantirish, badiiy asarlarni ifodali o'qish, notiqlik san'ati sirlarini mukammal o'rganish jarayonida olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat// O'zbek bolalar adabiyotining ilg'or yutuqlaridan xabardor qilish, bolalar adabiyoti va adabiy ta'limning ilmiy-nazariy asoslarini o'rgatish; o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, o'zbek bolalar adabiyoti namoyandalarning ijodini o'rganish, o'zbek va jahon bolalar folklori namunalari o'rganish, maktabgacha tarbiya, kichik maktab yoshidagi hamda o'smirlar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish; ularda kasbiy-pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, o'qituvchilik kasbiy madaniyatini kamol toptirishga o'rgatishdan iborat.</p>
13.	Mutolaa madaniyati va ifodali o'qish //Bolalar adabiyoti	MMIO'2604// BA2604	tanlov	6	<p>O'zbek adabiy tili tarixi, o'zbek tilining mohiyati, uning tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari to'g'risida batafsil bilim berish, til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat haqida talabalar mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish // O'zbek tilining qiyosiy grammatikasini o'rganishda o'z va o'zga tillar bilan qiyoslagan holda sinxron va diaxron aspektda tadbiiq qilish ko'nikmasini shakllantirish</p> <p>Adabiy talaffuzdan to'g'ri foydalanish, muloqot jarayoniga mos nutq so'zlay olish, talaffuzi qiyin bo'lgan so'zlarni to'g'ri ayta olish; Dars jarayonida o'zini tuta olish, mimika va nigoh harakatlaridan kerakli o'rinlardan unumli foydalana olish; o'quvchilar bilan muloqotni shakllantira olish// O'quv topshiriqlarining mazmun va mohiyatini chuqur tahlil qila olish, uni yaratish va takomillashtirishga oid bilimga, amaldagi o'quv rejalari va ularga oid muammolarni tanqidiy o'rganish.</p>
14.	O'zbek tili tarixi// O'zbek tilining qiyosiy grammatikasi	O'TT2704// O'TQG2704	tanlov	7	
15.	O'qituvchining nutq madaniyati// O'quv topshiriqlarini yaratish metodikasi	O'NM2704// O'TYM2704	tanlov	7	



16.	Mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish//Badiiy asarlarni qiyosiy tahlilda o'rgatish	MASHO'2806//BAQTO'2806	tanlov	8	<p>Adabiyot darsliklariga kiritilgan mumtoz asarlarni sharhlab o'qitish, mumtoz matn bilan ishlash metodikasini o'rganish, mumtoz manbalarning diniy-falsafiy asoslari haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish kompetensiyalarini shakllantirishni ko'zda tutadi // "Badiiy asarlarni qiyosiy tahlilda o'rganish" fanida milliy adabiyot jahon adabiyoti durdonalari bilan ijtimoiy, tarixiy kontekst nuqtai nazaridan qiyoslab o'rgatiladi. Fanda aks etgan mavzularning jahon adabiy ta'limidagi ilg'or tajribalar asosiga qo'yilganligi, fanlarning bugun jahon universitetlarida o'tilayotgan qiyosiy adabiyotshunoslikning eng so'ngi nazariyalari haqida ma'lumot berishi, undagi mavzularning nazariyalarga asoslanishi, muayyan mavzuning milliy va xorijiy tajriba asosida o'rganish.</p>
17.	Darsliklardan foydalanish metodikasi// Simfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi	DFM2806//STIM2806	tanlov	8	<p>O'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha maktab darsliklari haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish, darsliklarni tahlil etish, ulardagi yutuq va kamchiliklar haqida yetarli mulohazaga ega bo'lish // Ona tili va adabiyot darslarida simfdan tashqari ishlarni loyihalashtira olish, mazmuni, mohiyati, turlarini farqlash, savodxonlikka oid blog yaratish, simfdan tashqari mashg'ulotlarni aniq va maqsadli olib borish, simfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini tashkil qilish, adabiy uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar, konferensiyalar, adabiy bahslar, adabiy kechalar, mushoiralar uyushtirish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.</p>
18.	Baholash nazariyasi asoslari// Xalqaro baholash asoslari	BNA2806//XBA2806	tanlov	8	<p>Baholash nazariyasining asosiy tushunchalarini farqlash, summativ va formativ baholash, mezonga hamda normaga asoslangan baholashni farqlay olish; Pedagogik o'lchov vositalarining ishonchiligi, validiligi, obyektivligini ta'minlay olish; Maktab ta'limida ona tili va adabiyot fanidan baholash jarayoni tashkil eta olish; O'quvchilarning BKMlarini to'g'ri baholay olish ko'nikma va malakalari shakllantirish.</p>

ToshDO‘TAU o‘quv ishlar bo‘yicha prorektori



S. Normamatov

O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i



V. Nazarov

Ona tili va adabiyot ta‘limi fakultet dekani



M. Abdullayeva

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri



Q. Yo‘ldoshev

O‘zbek adabiyoti ta‘limi kafedrasi mudiri



R. Niyozmetova

Ona tili ta‘limi kafedrasi mudiri



K. Mavlonova